

TARJIMA ME'YORI TUSHUNCHASI MOHIYATI VA UNING KOGNITIV TABIATI

Qosimova Nafisa Farhodovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Buxoro davlat universiteti

Tarjima me'yorlarining tabiati va o'z-o'zini boshqarish mexanizmidagi roli haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo tarjima ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligini doimo yodda tutishimiz zarur. Ushbu omilning ta'sirini hisobga olgan holda, tarjima jarayoni tabiati va ta'sir darajasi bo'yicha turlicha bo'lgan ma'lum cheklovlar doirasida amalga oshiriladi, deb taxmin qilish mumkin. Bu cheklovlar manba til, asliyat tili va tarjima tili o'rtasidagi farqlar va tarjimonning kognitiv mexanizmi imkoniyatlaridan tashqariga chiqadi.

Me'yorlar shakllanish jarayonida bir necha bosqichlardan o'tishi mumkin. Masalan, xulq-atvorning faqatgina subyektiv modeli vaqt o'tishi bilan tarqalishi va qoidalarga yaqinlashib, majburiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Biroq, ko'pincha teskari jarayonga duch kelamiz. Me'yorlar tabiatining o'zgarishi ularning jamiyatdagi mavqeining o'zgarishi bilan bog'liq.

Tarjima jarayoni, shubhasiz, mutarjim faoliyati, tarjima matn va kommunikativ vaziyat kabi tashqi komponentlarni o'z ichiga oladi. Me'yor tushunchasi qanday qilib tarjima jarayoni bilan bog'liq bo'lishi mumkin degan savol tug'ilishi tabiiy. Sotsiallik hodisasi faoliyatimizning barcha jabhalariga kirib borganligi barchaga ayon, shundan kelib chiqib, tarjima jarayoni ham sotsial-madaniy ahamiyatga ega faoliyat ekanligi o'z tasdig'ini topadi [2:97]. Shunga ko'ra, ma'lum bir ijtimoiy guruhda amalda bo'lgan me'yorlar tarjima jarayoniga ham bevosita ta'sir qiladi.

Tarjima hodisasi me'yoriy faoliyat bo'libgina qolmay, balki tarjimonga tanlash erkinligini ham beruvchi faoliyat turidir. Tarjimon aynan o'zi uchun xoh beixtiyor yoki ixtiyoriy ravishda bo'lsin – ijtimoiy-madaniy kontekstning o'ziga xos

sharoitida xatti-harakatlar modelini tanlaydi, chunki u o'z faoliyati natijasi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tarjimonda har doim ma'lum bir vaziyatda nostandart yoki me'yor doirasidan chiquvchi qarorlarni qabul qilish imkoniyatini saqlanib qoladi. Ammo odatda tarjimon turli xil cheklovlar va jazoga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlardan qochishga intiladi.

Barchaga ma'lum har bir madaniyatning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy me'yorlari va konvensiyalari mavjud. Shu boisdan tarjima jarayonida til va madaniy an'analarning "qarama-qarshiligi" ga duch kelamiz. Bir guruh me'yorlarning boshqasiga dominant ta'siri ikki turdagi tarjima matnlarining paydo bo'lishiga olib keladi:

1) tarjima matni (TM)ning tarjima tili (TT) madaniyati bilan assimilyatsiyasi;

2) boshqa madaniyatga mansub tarjima matnini (TM) aks ettiruvchi tarjima tili (TT).

Shu o'rinda tarjima jarayonida qaysi me'yor ustunlik qilishi haqidagi haqli bir savol tug'iladi. Bunda manba til (MT) yoki tarjima til (TT) orasidan tanlashga to'g'ri keladi. Tarjimon MT doirasida joriy etilgan me'yorlarga asoslanib yoki TT me'yorlaridan faol ravishda foydalangan holda tarjima qilishi mumkin. Tarjima jarayonida aynan MT me'yorlarining ustun qo'yilishi mutarjimning tarjimada maksimal adekvatlikka erishish istagi bilan bog'liq. Ikkinchi holatda esa aksincha, tarjima jarayonida TT madaniy tizimining me'yorlari va an'analari ustunlikni qo'lga oladi, tabiiyki bunda MT va unda ishlaydigan me'yorlardan uzoqlashish kuzatiladi. Shunday qilib, tarjimada MT me'yorlarining ustunligi TT ning qanchalik adekvatligini ta'minlasa, ayni paytda TT me'yorlari shunchalik tarjimaning kitobxon tomonidan oson qabul qilinishiga ta'sirini o'tkazadi.

G.Turining fikricha, MT me'yorlari adekvatlik va maqbullik kabi ikkita fundamental tushunchaga asoslanganligi sababli ular muayyan me'yorlarga nisbatan ustunlikka ega. Shunga muvofiq, mutarjim tarjima jarayonida ma'lum bir muammoga duch kelganda, MT me'yorida belgilangan yuqoridagi ikki fundamental

komponent o'rtasidagi "oltin oraliq" ni topishga majbur bo'ladi, ya'ni ular tarjimada bir-birini to'ldirishiga erishishni nazarda tutadi. Aytib o'tilganidek, me'yorning ikki komponenti o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish mexanizmi tayyor algoritmgaga emas va har bir muammoli vaziyat bu holatda o'ziga xos oqilona yondashuvni talab qiladi. Albatta bu yondashuv tarjimon tomonidagina ishlab chiqiladi.

Shunga qaramay, tarjimon bir madaniyat doirasida adekvatlik va maqbullik o'rtasida hamohanglikka, murosaga erishish yo'lida ma'lum bir qoliplarga murojaat qiladi. Tarjimaning ozi me'yoriy jarayon bo'lganligi bois mazkur qoliplar tarjima jarayonida tarjima xatti-harakatlarining takroriy modellarini yaratishga imkon beradi. Tarjima jarayonlarini kuzatish orqali hatto bir xil matnni tarjima qilishda ham mutlaq qoliplarni aniqlash mumkin emasligiga amin bo'lamiz va bu holatga me'yorning differensial va nisbiy tabiati hosilasi sifatida qarashning o'zi kifoya [5: 10-32].

Hozirgi vaqtda me'yorlarning tabiatini to'laligicha ochib bera oladigan ikkita yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvda olimlar, avvalo, me'yorlarning tartibga solish xususiyatini nazarda tutadilar. Masalan, me'yoriy grammatikadan bunga misol bo'la oladi. Ikkinchi yondashuv - tavsiflovchi - ular tartibga soluvchi jarayonlar va xatti-harakatlar modellarini, shuningdek normativ faoliyat mahsulotlarini tavsiflash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima me'yorlarini o'zlashtirish tarjima jarayoni hamda tarjimon faoliyatining ajralmas qismidir, shu bilan birga ushbu turdagi bilimlarni olish va uni amaliy qo'llash qobiliyati tarjima sotsializatsiyasining muhim jihatini tashkil etadi. Bu tarjima yaxlit kommunikativ hodisani ta'minlash vositasi sifatida muloqotga sabab bo'lgan vaziyat va kommunikantlar bilan teskari aloqa asosiga qurilishini anglatadi. Ushbu turdagi teskari aloqa tarjimaning to'g'ri yoki noto'g'riligiga nafaqat TT dagi mavjud lingvistik me'yorlar nuqtai nazaridan, balki ushbu ijtimoiy-madaniy muhitda amalga oshirilgan tarjima nuqtai nazaridan ham baho beradi.

Adabiyotlar:

1. Chesterman, A. 1993. From 'Is' to 'Ought': Laws, Norms and Strategies in www.tadqiqotlar.uz

Translation Studies. Target 5.

2. Davis, J. 1994. Social creativity. In C.M. Hann (ed.) *When History Accelerates: Essays on Rapid Social Change, Complexity and Creativity*. London and Atlantic Highlands, NJ: The Athlone Press.
3. Farhodovna KN. Linguophilosophical Aspects of Translation in The Light of Its Psycholinguistic Model. *RES MILITARIS*. 2022 Dec 25;12(4):2194-202.
4. Toury, G. (1998). A handful of paragraphs on 'translation' and 'norms'. *Current Issues in Language & Society*, 5(1-2), 10-32.